

Bandixon va Oltinsoy tumanlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalari muhokama qilindi



Xabar berilganidek, viloyat Ishchi guruhlari tomonidan Termiz shahri va tumanlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha belgilangan dasturlar ijrosi, sektorlar faoliyati, aholi turmush farovonligini oshirish va boshqa yo'nalishlarda amalga oshirilayotgan ishlar o'rganilib, natijasi tahlil qilib borilmoqda.

Bugun viloyat hokimi Ulug'bek Qosimov ishchi guruhlar tomonidan Bandixon va Oltinsoy tumanlarida o'tkazilgan navbatdagi o'rganish natijalarini videokonfrentsaloqa shaklida boshqarma va tashkilotlar hamda ikki hudud mas'ullari ishtirokida muhokama qildi.

Ushbu tumanlarda dasturlar ijrosida qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan. Mol-mulk va yer soliqlari iyul oyi uchun belgilangan reja Bandixon tumanida 25 foizga, Oltinsoy tumanida 26 foizga undirilgan. Investitsiya loyihalarini amalga oshirish holati Bandixon tumanida 9 foizni, Oltinsoy tumanida 23 foizni tashkil etadi. Natijada ikki hududda investitsiya dasturi asosida yaratilishi belgilangan 821 ta ish o'rni tashkil etilmagan.

Viloyat rahbari shu va boshqa yo'nalishlarda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni sanab o'tdi va tumanlar mutasaddilarini qat'iy ogohlantirdi. Mas'ullarga mavjud holatni o'nglash bo'yicha vazifalar belgilab berildi.

[Surxondaryo viloyati hokimligi Matbuot xizmati](#)